

Kuzatuv

Umrni yo'lga o'xshatish bejiz emas! Kunlarimizning aksariyat qismi yo'lda o'tadi: ish, uy... Oddiy kun tartibimiz yo'l bilan boshlanib, yo'l bilan tugaydi. Yigirma yildan oshdi tarbiyachi bo'lib ishlayman. Bolalarning shovqini quloqlarimga o'r'nashib qolgan. Gohida charchoqdan holsiz bo'lsak-da, bolajonlarning tabassumi, kutilmagan gaplaridan quvvat olamiz.

Ularini sog'inamiz, ming yillik qadrdonlardek bag'rimizga bosib ko'rishamiz. Bolajonlar rost dunyoning polaponlari, yig'isi, kulgusi, gaplarida yolg'on yo'q! Shuning uchun bo'lsa kerak, qayerda bo'lmaylik bola ovozi kelgan tarafga boshimiz qayrilib qaraganimizni bilmay qolamiz.

QUVONCH ULASHAYOTGANLAR...

Bahorning ilk kunidan Pedagoglar mahoratini oshirish markazida o'qishdaman. Yo'lim Kosmonavtlar metrossi orqali o'tadi. Shoshib tursam-da, uzoqdan bolalarning qiyiqirlari, gala qushlarning pirillab uchganlari eshitildi, uzoqdan kuzatam navbatda turgandek ota-onalar, yonlarida qarzandlari. Har kuni shu holat, tanish qiyiqirlar, g'u-g'ulagan fushlar ovozi. Yaqinroq bog'im keladi-yu, vaqtini hisobga olaman. Va nihoyat, borib kuzatishni rejalashtirdim. Yaqinlashganim sari – quvonchning ovozi yangragandek bo'ldi, ko'zlarim beixtiyor katta-katta ochildi. Qushlarga yegulik (don) sotib olishga navbatda turgan ota-onalar va gala kabutarlarga kimdir qo'llarini tutib, kimdir yerga sohib don berayotgan bolajonlar! Ularning quvonch to'la qiyiqirlaridan ko'ngil yorishadi, zavqqa to'ladi, ko'zlar yoshlanadi. Kuzatsam, kabutalar ham insonlarga o'xshab ketarkan. Qaysi biri bir chekkada oldiga tushgan donlarni yeb, indamaygina tursa, biri qanotlarini yoygancha atrofidagi sheriklarini quvadi, yana boshqasi esa mayсалarning orasidan don axtaradi... Jim turib kuzatayotgan, qo'llarida yegulik bilan sakrayotgan, aravachasidan tushib ketay deb qushlarga talpinayotgan bolajonlarning quvonchiga dunyo torlik qiladi go'yo.

O'ylanib qoldim, quvonchni sotib olish mumkin ekan. Quvonch sotayotgan va ulashayotgan odamlar... Faqat shu yerda – beg'uborlar davrasida! Ko'zimga yosh keldi. Qaniydi, hamma joyda quvonchni xarid qiladigan rastalar bo'lsa... xastalar bo'lmasa... Atrofga qaradim, qator-qator kitob do'konlari. U yerda ham ota-onalari va o'z'lari kitob tanlayotgan, boshlarini kitobdan ko'tarmay nimanidir axtarayotgan o'quvchilar. Ular juda ko'p. Rastaning oxiri ko'rilmaydi. Birdan ko'nglim yorishib ketdi. Ular nazarimda quvonchning davomini, baxтини izlayotganga o'xshardi...

Zilola ABDUYUNUSOVA,
Parkent tumanidagi
11-MTT tarbiyachisi

Har qanday davrda insoniyat oldida turgan asosiy vazifa uning hayotini davom ettiradigan aqlli avlodni tarbiyalashdir. Jamiyat egalarining har tomonlama barkamol, zukko, yetuk insonlar bo'lib yetishishida eng avvalo ularni ilmiy qilish masalasi turadi.

KUTUBXONA – MILLIY QADRIYATLAR O'CHOG'I

Xalqimizning ma'naviy boyligi jamlangan kutubxonalar o'z qarashiga ega shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yurtboshimiz “Yangi O'zbekiston kutubxonalardan boshlanadi” deb bejiz aytmagan. Kutubxonalar o'tmish va kelajak ko'prigidir.

Bizda “Bola odam bo'lib tarbiyalanmaguncha, shahar balo bo'lur” degan naql bor. Bu qiyoslashning o'zi ham bolaning haqiqiy shaxs bo'lib shakllanishi ko'p vaqt va mehnat, mas'uliyat talab qilishini ko'rsatadi. “Bayroq yonida qiyshiq daraxt yo'qay” deganlaridek, saralangan ta'lim yo'lining burilish nuqtasi xalqning o'zida, ajdodlar ongida, urf-odatlaridadir.

Bugungi kunda o'quvchilarga jahon andozalari darajasida ta'lim-tarbiya berish, ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish biz kutubxonachilarning ham asosiy vazifamizdir.

Hurmatoy SAPARBOYEBA,
Ellikqal'a tumani Axborot-kutubxona
markazi bibliografi

Tabiatni asrang

“YASHIL” QUTQARUVCHILAR

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda. Achinarlisi, bu taraqqiyotning salbiy oqibatlari ham talaygina. Masalan, iqtisodiyot rivojlanishi uchun juda ko'plab zavod, fabrikalar qurilayotgani ekologiyaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Texnika rivojlangani sayin insonlarning raqamli dunyoga bo'lgan qiziqishi ularni real hayotdan uzib, kitob o'qimay qo'yishiga sabab bo'lmoqda.

Bejiz fikrimni ekologiyadan boshlamadim. Bugun nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda ekologik vaziyat og'ir. Ko'l-dengizlar qurib, daraxtlar kesilmoqda, natijada havoning ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi yuzaga kelyapti.

Yurtimizda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb atalishi ham bekorga emas. Yashab turgan borliqni asrash, tabiatga ziyon yetkazmaslik har bir davlatning rivojlanish yo'lidagi strategik maqsadi bo'lishi kerak.

So'nggi ikki-uch yilda “ekomadaniyat”, “yashil iqtisodiyot” kabi jumalarga ko'p ro'baro kelyapmiz. Hatto bu umummilliy harakatga aylandi. Mahallalar, maktab, oliy ta'lim muassasalari, hatto bog'chalarda ham ekologik harakatlar bo'y cho'zdi.

Yaqinda maktab yoshidagi farzandimning dadasi bilan suhbat qulog'imga chaldindi. “Ustozimiz aytdi, har bir o'quvchi o'z hovlisiga bir ko'chat ekib, parvarishlashi kerak ekan. Daraxtlarning dunyomizga foydasi katta ekan. Menga ham ko'chat olib kelib bering. Men ham daraxt o'stirmoqchiman”, dedi sevinib. Turmush o'ttogim ham xursand bo'lib, ertasi kuni hammamizga bittadan mevali daraxtlar ko'chatini olib keldi. Barchamiz birgalashib o'tqazdik. Bolalarning quvonchi ichiga sig'masdi. Qizim daraxtlarga hammamizning ismimizni qo'yib chiqdi.

Har kuni maktabdan kelib “gulladimikan” deya ko'chat shoxlariga qaraydi. Tagiga suv quyadi, gaplashadi. Mehr bilan parvarishlangan nihol albatta ko'karadi deyishadi. Ertalabdan qizim o'z daraxti yonida quvonchdan ko'kka sakrardi. Chunki ko'chatlar kurtak yoza boshlabdi.

– O'yjon, ustozimiz bizni “yashil qutqaruvchilar” deb atadi. Dam olish kuni sinfimizdagi barcha bolalar nihol o'tqazishibdi. Bu bizning Vatanimiz, tabiat ko'rkgiga qo'shgan hissamiz ekan...

Qizimning bu so'zlaridan juda ta'sirlandim. “Yashil qutqaruvchilar”... Shunday o'z kasbiga sodiq, mas'uliyatli, vatanparvar ustozlarning qo'lidahsil olayotgan farzandimning kelajagidan hech xavotir olmayman. Tabiatni asra, chiqindilarni tashlama, suvni isrof qilma, degan bilan ish bitmaydi. Ekomadaniyat, ekota'lim tushunchalarini bolalarga bolalikdan singdirish lozim ekan. Qani endi hammamiz “yashil qutqaruvchilar”ga aylansak, ekologik muammolar kamayib, tevarak olamga bo'lgan munosabatimiz o'zgargan bo'lardi. Siz ham bugun ishingizni ko'chat qadashdan boshlang.

Sevara BOTIROVA,
NamDPI “Gumanitar fanlar”
kafedrası mudiri

O'qituvchi kundaligidan

ORZIQISH

– Mu-nis... – bola sekin kitobdagi so'zni bo'g'inlab o'qidi. Keyin bir lahza jim qoldi. Ko'zlari chaqnaib, yuziga samimiy tabassum yugurdi. Xuddi yuragidagi quvonch birdaniga tiliga ko'chib kelgandek: – Ayamning ismi ham Munis! – dedi entikib. – Bugun keladi... Bugun keladigan kuni!

Shu so'zlarni aytarkan, ovozi hayajondan titrab ketdi. Onasini sog'ingani bilinib turardi. Axir bir hafta bo'ldi, onasi ishga ketganiga. Endi esa juma! Eng yaxshi kun! O'qituvchi mehr bilan bolaga qaradi. Endi darsning ham, kitobdagi so'zlarning ham unga qizig'i yo'q edi. Uning hayajonini, yuragidagi intizorlikni faqat bitta narsa qondiralarldi – onasining uyga qaytishi.

Bola uchun onadan qadrlı inson yo'q. Ish, ehtiyoj, hayot tashvishlari – bular kattalar uchun muhim, lekin bola uchun bir narsa muhim: onasining uyda bo'lishi. Mehr berishi, yonida bo'lishi, sochini silashi. Qanchadan qancha bolalar onalarining iliq bag'riga zor... Qanchasi xuddi shu o'quvchim kabi “Bugun keladigan kuni...”, deb sanab yuradi... Hayot shunday, ba'zan ehtiyoj tufayli baxt kechikadi.

Guljahan EGAMQULOVA,
Forish tumanidagi
15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Dolzarb mavzu

HAVONING IFLOSLANISHI: sabablar, oqibatlar va yechim yo'llari

Havoning ifloslanishi – zamonaviy dunyoning jiddiy ekologik muammolaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSS) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 7 milliarddan ortiq kishi havoning ifloslanishi sababli yuzaga keladigan kasalliklardan erta vafot etadi. Havo ifloslanishi umrni 5–10 yilga qisqartirishi mumkin. Zararkunanda chiqindilar nafaqat inson salomatligiga, balki iqlim, ekotizim va bio xilma-xillikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Atmosferaning ifloslanishi tabiiy va antropogen (inson faoliyati bilan bog'liq) bo'lishi mumkin. Tabiiy manbalarga tabiat jarayonlari kiradi. U havoning ifloslanishiga hissa qo'shadi, lekin ta'siri nisbatan kichik va mahalliy bo'ladi. Vulqon otilishi – havoga kul, oltingugurt gazi va boshqa zaharli birikmalar chiqaradi. Chang bo'ronlari – katta masofalarga qum va chang zarralarini olib boradi.

O'rmon yong'inlari – is gazi, oltingugurt va azot oksidlarini chiqaradi. Antropogen (inson faoliyati bilan bog'liq) manbalarga to'xtaladigan bo'lsak, havo ifloslanishining asosiy sababi inson omilidir:

Sanoat va energetika – zavodlar, elektr stansiyalari va neftni qayta ishlash korxonalari karbon va oltingugurt birikmalarini chiqaradi. Transport – avtomobillar, samolyotlar va kemalar karbonat angidrid (CO₂), azot oksidlari va zararli zarrachalarni chiqaradi. Qishloq xo'jaligi – o'g'it va pestitsidlar ammiak va metanning havoga chiqishiga sabab bo'ladi. Maishiy chiqindilar – ko'mir va o'tin yoqish natijasida mahalliy ifloslanish yuzaga keladi.

Havoning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Uzoq muddatli kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Kanserogen moddalar o'pka va jigra saratoni xavfini oshiradi. Nafas yo'llari kasalliklari (astma, surunkali bronxit, o'pka saratoni va allergiyalarni kuchaytiradi).

Uglerod oksidlari – yurak-qon tomir kasalliklari (infarkt, yurak xuruj, insult xavfini oshiradi), asab tizimini ishdan chiqaradi. Immunitetning pasayishi, miya faoliyatining yomonlashuvi, reproduktiv tizim muammolarini keltirib chiqaradi.

Havo insoniyat genetikasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chang tarkibidagi og'ir metallar, kanserogen moddalar DNK tuzilishini o'zgartirishi va irsiy kasalliklar xavfini oshirishi mumkin. Bolalar, qariyalar va yirik shahar aholisi – eng katta xavf ostida.

Kislotali yomg'irlar – oltingugurt va azot oksidlari suv bilan reaksiyaga kirishib, tuproq va suv havzalarini buzadi. Issiqxona effekti va iqlim o'zgarishi – karbonat angidrid va metan global isish jarayonini tezlashtiradi.

Zaharlangan havo (smog) – zararli zarralar va gazlarning to'planishi shahar havosining sifatini pasaytiradi, o'lim holatlarini oshiradi.

Havoni ifloslanishining oldini olish uchun ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish lozim, bu quyosh, shamol va gidroenergetikaga o'tish karbon chiqindilarini kamaytiradi. Sanoat uchun qat'iy qoidalarni joriy etish – zavodlarda filtr va tozalash tizimlarini o'rnatish. Ekologik transportni rivojlantirish – jamoat transporti, elektromobillar va velosiped yo'llarini rivojlantirish.

Ko'mir va neftdan foydalanishni kamaytirish – gazga o'tish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash. Shaharlarni ko'kalamzorlashtirish – daraxtlar karbonat angidridni yutib, zararli moddalardan havoni tozalaydi. Maishiy chiqindilarni kamaytirish – energiyani tejash, xavfsiz yo'qlaridan foydalanish.

O'zingizni qanday himoya qilish mumkin?

Kuniga yarim yoki bir stakan qatq ichish havo ifloslanishdan organizmni himoya qilishiga yordam beradi. D vitaminlarini qabul qiling yoki vitaminlarga boy mahsulotlarni iste'mol qiling. Tadqiqotlar shuni ko'satadi: B vitaminlari havo ifloslanishiga qarshi himoya xususiyatiga ega.

Havoning ifloslanishi – inson salomatligi va tabiatga jiddiy xavf soluvchi global muammo. Uni hal qilish uchun xalqaro, davlat va individual darajada kompleks chora-tadbirlar zarur. Har bir inson energiyani tejash, jamoat transportidan foydalanish va ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali hissa qo'shishi mumkin. Havo filtrlash tizimidan foydalanish kerak.

Faqat birgalikda harakat qilibgina havoning ifloslanish darajasini pasaytirib, kelajak avlodlar uchun toza atmosferani saqlab qolishimiz mumkin.

Nargiza HASANOVA,
ChDPD Fizika va kimyo fakulteti
“Kimyo” kafedrası o'qituvchisi

Taklif

BUYUK AJDODLARIMIZNI BILASIZMI?

Ajdodlarimizning bosib o'tgan mashaqqatli va ibratli hayot yo'llarini, biz uchun qoldirgan ma'naviy meroslarini kelajak avlodga o'z o'mida yetkazish, buyuklar yodi yoshlar qalbida mangu olov kabi yonib, porlab turishi uchun bobokolonlarimizni tarix zarvaraqdari qatidan olib chiqib yoshlarimiz ongiga yangicha yondashuvlar asosida joylashimiz lozim.

O'zbekistonda qanchadan qancha dunyo tan olgan olim-u donishmandlar, tarixiy qahramonlar yashab o'tgan. Ularning jasorati, ular haqidagi hikoyat va rivoyatlar dunyo ahlini lol qoldirgan.

Biroq biz negadir ularning xotirasini abadiylashtirish, bosib o'tgan yo'lini, qilgan qahramonliklarini targ'ib qilishda biroz sustkashlikka yo'l qo'ymoqdamiz. Masalan, bir yilni bitta buyuk ajdodimiz nomi bilan atab, yil davomida o'sha tarixiy shaxs nomi bilan sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, davra suhbatlari, barcha ta'lim dargohlarida o'sha insonga atalgan tarixiy burchaklar tashkil etsak, nur ustiga nur bo'lardi. Yil davomida yosh avlod tanlovlar sabab o'qib, izlanib o'sha tarixiy qahramon haqida ko'pgina yangi ma'lumotlarga ega bo'lar edi. Shaxsan o'zim ijodkor sifatida Osiyo davlatlarida o'tkazilayotgan xalqaro ijodiy tanlovlarda onlayn ishtirok etib boraman. Ular tashkil etgan tanlov albatta o'z millatining buyuk ijodkorlari yoki tarixiy shaxslariga bag'ishlanadi. Bitta tanlov bahonasida o'sha davlatning adabiyoti, tarixi, o'tmishi, madaniyati haqida o'qib, ko'pgina qiziqarli va bilmaganim ma'lumotlarimga ega bo'laman.

Biz ham yil davomida buyuk ajdodlarimiz nomini abadiylashtirib turli tanlovlar uyushtirsak, kelajak avlodga shuncha ko'p ma'lumotlar bergan bo'lamiz. Nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro maydonda ham ularning nomi ostida turli ko'rik-tanlovlar, viktorinalar, zakovat o'yinlari, sport o'yinlari, olimpiadalar tashkil etsak millatimiz donishmandlari va daholarining hayot yo'li hamda ijodini jahon miqyosida omallashtirgan bo'lardik.

Saodat QURBONOVA,
Nishon tumanidagi
18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

MAKTAB-OILA-USTOZ HAMKORLIGI

“Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

Maktablarimizda ta'lim sifatini oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Dunyoning turli mamlakatlari ham mazkur masalada o'ziga xos tajribalar to'plagan. Germaniyada turli metodikalar yordamida 10-12 yoshli o'quvchilar uchun maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan gimnaziyalar tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan. Xitoyda esa bilimli yoshlar ta'limning keyingi bosqichini davom ettirishda turli imtiyozlar – davlat stipendiyalari, ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu o'rinda aytish joizki, Xitoyda maxsus maktablar mavjud emas, biroq universitetlar qoshida ochilgan o'rta maktablarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishadi. Har bir universitet qoshida yuqori darajada ta'lim beriladigan maktablar ham mavjud. Bizning yurtimizda ham Prezident maktablari va turli xil fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda.

Ta'lim sohasida faqat maktabning o'zi emas, oilaning ham roli muhim. Chet mamlakatlarining birida o'tkazilgan tajribada maktabda o'quvchi uchun yuqori malakali o'qituvchilar jalb qilinib, barcha sharoitlar ko'rsatiladi, biroq ota-onalar jalb qilinmaydi. Tajriba bir yil kuzatilganda salbiy natija ko'rsatadi. Sababi, maktab-oila-o'qituvchi hamkorligida ishlansagina, yuqori natijalarga erishish mumkin.

Mohlaroyim HAYDAROVA,
Baliqchi tumanidagi
53-maktabning
ingliz tili fani o'qituvchisi

Ta'lim-tarbiya chorrahasida

TA'LIM BERMOQLIK – FIDOYILIK DEMAKDIR

Bugun modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishga jadal kirishilayapti. Elektron darsliklar, qo'llanmalar yaratilmoqda. O'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish kengayib boryapti... Barcha yangiliklarni keltirishga imkon yo'q.

Chunki hayotimizga kirib kelayotgan axborotlar oqimi ummondek cheksiz-chegarasizdir. Ta'limdagi inqilob an'anaviy o'qitishning – talabaga yetarli hajmda muayyan fan bo'yicha bilim berishning mazmunini kengaytirib yuboradi.

Bu kabi jarayonlar haqida adabiyotshunos olim, professor Hotam Umurov shunday deydi: *“O'qish, o'rganish harf(kompyuter) taniganidan boshlab, qabrgacha davom etishi, unga doimiy va muntazam intilish tuyg'usi tirik bo'lishi – har bir shaxs hayotining mazmuni ko'rsatkichiga aylandi. Ya'ni, qorin uchun non qanchalik zarur bo'lsa, o'qish aql va tuyg'ular tirikligi uchun shunchalik kerakligi, bilimsizlik – noxush va nojoiz ishlarga doya ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisaga tenglashdi”.*

Darhaqiqat, bugungi kunda axborotga bo'lgan intilish inson ongi va zehniyatiga goh ijobiy, goh salbiy ta'sir etish bilan birga uni boshqarishga qaratilgan jarayon. Aynan axborot va telekommunikatsiya sohasidagi bunday ustunlik dastlab siyosiy-iqtisodiy, keyin esa madaniy ustunlik o'rnatishga olib kelmoqda. Kuzatishlarimiz natijasi analiz-sintez, ilmiy va metodologik jihatdan jarayonni tahlil etish kerakligini ko'rsatdi.

Xo'sh, bolalarimizga zamonaviy bilim beruvchi o'qituvchilarimiz shunday bilimga, pedagogik texnologiyaga egami? O'qishning, o'qitishning mohiyatini barcha anglab yetganmi? Yaponlarda *“Bolonga baliq yeyishni o'rgatsang, bir kun baliq yeysan, agar bolangga baliq tutishni o'rgatsang, umrbod baliq yeysan”* degan hikmat bor. Ana shu hikmatga qiyosan, biz o'qituvchilar bolalarimiz, talabalarimiz, xalqimizga shunday bilim beraylikki, bu bilim ularga yo'l-yo'riq ko'rsatsin. Izlanishiga turtki bersin, axborotlarni to'plash, tahlil qilish, keragini ajratib olishni o'rgatsin. Maslahatlarimizga amal qilib fan sirlarini, hayot va jamiyat mohiyatini, insoniyat va tafakkur tarixini o'zi kashf qilsin. Yaxshi va yomon, halol va harom, ezgulik va yovuzlik, haqiqatni ajratsin. Shundaygina uzluksiz ta'limning zarurligini tushunadi, shu orqaligina hayotiga zarur saboqlarni oladi, hayotning va umr mazmunining qadriga yetadi. Pirovardida, o'zligini taniydi va o'zligini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatini topadi. Endi bu o'zlik – tanlagan sohasida yaratuvchanlik, insoniylik kasb etadi.

Ta'limning mazmun-mohiyati ham ana shundadir! Ta'limga yarasha jamiyat, jamiyatga yarasha ta'limning voqe bo'lishi ham shundadir. Shu sabab, ulug'lar aytishgan: *“Bilim misoli bir chashmadur. Uni so'nggi daqiqagacha ich”* (Abu Lays as-Samarqandiy).

Ana shu mazmun Hotam Umurovning *“Talaba ma'naviyati va ma'rifati”* asarida *“har tomonlama kamol topgan... jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqaro”*ni tarbiyalashni taqozo etadi. Demak, demokratik jamiyatimizning, buyuk mamlakatimizning buguni va ertasi – mutaxassis kadrlarga, ularning salohiyatiga, sifati (insoniyligi) ga bog'liqdir. Shaxs va jamiyat hamkorligi bir-birini ro'yobga chiqaruvchi, boyituvchi, komillikka yetaklovchi, ayni paytda, rivojlanish jarayonida bir-biridan tabiiy tarzda yuzaga chiqqan kamchilik va yetishmovchiliklarni sabr va birodarlik bilan, ilm-ma'rifat bilan bartaraf etuvchi tuyg'ular, xislatlar, kurashlar hamkorligini voqeikka aylantirmoqda. Dehqonchasiga aytganda, insonlarimiz va jamiyatimiz hayotidagi yaxshi-yu yomonlikka har bir shaxs – mutaxassis javobgardir.

Unutmaylik, bilimli inson hech qayerda, hech qachon yolg'iz qolmaydi. Bilim insonni yomonliklardan asraydi, hayotda o'z o'rmini, hurmat-e'tibor topishiga yordam beradi.

Maftuna XOLOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori